

## AHOLI TURMUSH DARAJASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI O'LCHASH KO'RSATKICHLARI

**Mamajonova Saida Vaxabjanovna**

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0002-0139-9255

[saidamamajonova76@gmail.com](mailto:saidamamajonova76@gmail.com)

**Annotatsiya.** Hukumat tomonidan amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosatning pirovard maqsadi aholi turmush darajasini oshirish hisoblanadi. Aholi turmush darajasi ko'p qirrali va murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada aholi turmush darajasining iqtisodiy mazmuni ochib berilgan va bu borada mualliflik yonlashuvlari ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy ne'matlar, aholi daromadlari, farovonlik, ijtimoiy infratuzilma, turmush darajasi, turmush sifati, budget.

## ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ И ПОКАЗАТЕЛИ ЕГО ИЗМЕРЕНИЯ

**Мамажонова Саида Вахабжановна**

Гулистанская государственный университет

**Аннотация.** Конечной целью проводимой правительством экономической политики является повышение уровня жизни населения. Уровень жизни населения-многогранная и сложная экономическая категория. Исходя из этого, в данной статье раскрывается экономическое содержание уровня жизни населения и выдвигаются авторские подходы в этом отношении.

**Ключевые слова:** национальная экономика, устойчивое развитие, экономический рост, социальная политика, социальные блага, доходы населения, благосостояние, социальная инфраструктура, уровень жизни, качество жизни, бюджет.

## THE ECONOMIC CONTENT OF THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND ITS MEASUREMENT INDICATORS

**Mamazhonova Saida Vakhabzhanovna**

Gulistan State University

**Annotation.** The ultimate goal of the Government's economic policy is to improve the standard of living of the population. The standard of living of the population is a multifaceted and complex economic category. Based on this, this article reveals the economic content of the standard of living of the population and puts forward the author's approaches in this regard.

**Keywords:** national economy, sustainable development, economic growth, social policy, social benefits, income of the population, welfare, social infrastructure, standard of living, quality of life, budget.

### **Kirish.**

Tadqiqot mavzusining dolzarbliji bir qator o'zaro bog'liq jihatlar bilan tavsiflanadi.

*Birinchidan*, aholi farovonligining asosiy xususiyatlari sifatida turmush darajasi va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash davlat iqtisodiy siyosatining strategik maqsadi-barqaror iqtisodiy o'sishga asoslangan aholi turmush darajasi sifatini yaxshilash bilan belgilanadi.

*Ikkinchidan*, aholining hayot sifatini yaxshilash odatda qaror topgan turmush darajasi bilan belgilanadi. Turmush darajasi va sifati tovarlarni iste'mol qilish bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun aholining turmush darajasi va iste'moli o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmini asoslash o'zgargan iste'mol tuzilmasi ta'siri ostida turmush darajasini shakllantirish jarayonini bashorat qilishga imkon beradi.

*Uchinchidan*, aholining turmush darajasi va iste'moli o'rtasidagi munosabatlarning omilli bog'liqligini o'rganish jamiyat rivojlanishining har qanday bosqichida dolzarblik kasb etadi, shu bilan bir qatorda, iqtisodiy taraqqiyotning bugungi bosqichida iste'molchilarining xulq-atvori va mamlakat aholisining hayotiy ustuvorliklari o'zgarishi bois, mazkur jihat yangicha ma'noga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida baholash borasida yangicha yondashuvlardan foydalanishni ko'zda tutadi.

*To'rtinchidan*, turmush darajasini shakllantirish jarayonlari va shu jumladan iste'molga turli tabiatga ega bo'lgan omillar ta'sir qiladi, bu turmush darajasi va iste'mol darajasining o'zaro ta'sir sohalarini aniqlashga imkon beradigan uslubiy vositalarni ishlab chiqish va asoslashning asosiy omili sifatida maydonga chiqadi.

*Beshinchidan*, davlat iqtisodiy siyosatining aniq belgilangan maqsadlari doirasida amalga oshirilayotgan aholi turmush darajasining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash mahalliy davlat hokimiyati organlarining aholi daromadlari va iste'molini tartibga soluvchi ta'sir yo'naliishlari va vositalarni ishlab chiqishni taqozo qiladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Aholi turmush darajasini tadqiq qilish masalalari har doim iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Hukumat tomonidan amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosat va ijtimoiy islohotlarning pirovard maqsadi mamlakat aholisining turmush darajasini yaxshilash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish hisoblanadi. Aholi turmush darajasi to'g'risida to'xtalar ekanmiz rossiyalik mutaxassis Shimov va Bogdanovichlar (2002)bu boradagi qarashlari qiziqish uyg'otadi. Ularning fikricha, aholi turmush farovonligi iste'molning yuqori darajasini ifoda etadi. Mahalliy tadqiqotchilardan Abdullayeva (2020) aholi turmush darajasini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish darajasi sifatida tavsiflaydi. Aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida aholi turmush shart-sharoitlarining yaxshilanib borishi bilan bog'liq jarayon ekanligi borasida Rustamov (2015) o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tadi.

Aholi turmush darajasi hududiy tavsifga ega ekanligi borasida tadqiqotchi D. Tadjiyevanining qarashlari real iqtisodiy voqelikka bir muncha mos keladi (Tadjiyeva, 2023).

Bir qator xorijlik tadqiqotchilar aholi turmush darajasini muayyan shaxs yoki uy xo'jaligining farovonlik darajasi bilan baholaydilar (Pearce, Atkinson, Dubourg, 1994).

Turmush darajasi ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topishi va bu ko'rsatkichlar doimiy ravishda to'ldirilib borilishi borasida amerikalik iqtisodchi Engerman o'z ilmiy izlanishlarida gapirib o'tadi, uning fikricha aholi turmush darajasini insonparvarlik nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi (Engerman, 1997).

Umuman olganda tadqiqotchilar tomonidan aholi turmush darajasini o'rganish borasida keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mazkur tushunchani ilmiy bilishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolaning asosiy kontseptsiyasini aholi turmush darajasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini o'chib berish tashkil qiladi. Tadqiqot kontseptsiyasiidan kelib chiqqan holda, aholi turmush darajasining talqini borasida turli mahalliy va xorijiy tadqiqotchilararning qarashlari o'zaro solishtirildi, ularning farqlovchi va o'xshash jihatlari alohida guruhlarga ajratilgan holda, aholi turmush darajasi borasida mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Maqolada ilgari surilgan mualliflik yondashuvlari va qarashlarini asoslash maqsadida ilmiy bilishning analiz va sintez, induktsiya va deduktsiya, tarixiylik, umumlashtirish, o'zaro taqposlash kabi usullaridan keng foydalanishga harakat qilindi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mehnat iqtisodiyotining rivojlanishi asnosida uning kontseptual va kategorik apparatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар, ularning shakllanishi va rivojlanish shart-sharoitlari va omillarini o'rghanish, tahlil qilish va baholashga asos sifatida xizmat qiluvchi kategorik va kontseptual apparatlar tizimi shakllandı. Mazkur tushunchalar majmui orasida "aholi turmush darajasi" tushunchasi alohida o'rın tutadi, undan foydalanish iqtisodiy tizimlar va ijtimoiy sohani rivojlantirish, shu jumladan bandlik, daromadga ega bo'lish va jamiyat tomonidan yaratilgan tovarlarni iste'mol qilish bborasida ilmiy izlanishlarni olib borishning muhim sharti sanaladi.

Aholi turmush darajasi va iste'mol o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilish o'z tabiatiga mazmuni borasida xolisona yondashuvni talab qiladi. "Aholi turmush darajasi" tushunchasi borasida mualliflik yondashuvini shakllantirish borasida bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning mazkur sohada amalga oshirgan tadqiqotlari o'rghanildi, tahlil natijalari bu borada izlanishlar olib borgan mualliflarning qarashlari deyarli bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatadi.

### 1-jadval

#### Mahalliy va xorijiy mutaxassislarining ilmiy izlanishlarida "aholi turmush darajasi" tushunchasining talqin qilinishi


Nº	"Aholi turmush darajasi" tushunchasining mazmuni	Manba
1	Aholi turmush farovonligi, iste'molning sifat jihatdan yuqori darajasi; asosiy ehtiyojlar tizimini qondirish darajasini belgilab beruvchi shartlar va ob'yektiv nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar majmuidir	Шимов В. Н., Богданович А. В., Ткачев С. П. Устойчивое развитие: проблемы, императивы, механизмы достижения. – 2002.
2	Farovonlik va iste'molning yuqori darajasi, yakka tartibdagи ehtiyojlarning qondirilish sifatini aniqlashtiruvchi omilli bog'liqlik va ko'rsatkichlar tizimi	Халиуллина Р. Ф., Рябчук П. Г. К задаче идентификации понятий «уровень жизни» и «качество жизни» //Новая наука: Современное состояние и пути развития. – 2016. – №. 12-2. – С. 180-183.
3	Umumiy ehtiyojlar tizimini qondirish ko'lami	Лебедев О.В. (2007) Формирование и оценка эффективности инвестиций в социальную сферу : дис. – Белгородский государственный технологический университет им. ВГ Шухова, 2007.
4	Moddiy va ma'naviy-madaniy ehtiyojlarni qondirish darajasi	Абдуллаева, М., & Адилов, Б. (2020). Аҳоли турмуш даражаси ва унга таъсир этувчи омиллар. <i>Архив научных исследований</i> , 1(13). извлечено от <a href="https://ejournal.tsue.uz/index.php/archiv_e/article/view/1514">https://ejournal.tsue.uz/index.php/archiv_e/article/view/1514</a>
5	Aholi turmush darajasi – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyoji qondirilishi va ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.	Рустамов Н. И. Аҳоли турмуш даражаси ва Ўзбекистонда уни ошириш имкониятлари.“ //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. – 2015. – Т. 5. – С. 1-9.

6	Muayyan hudud aholisining iqtisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiquvchi hayot sifatini ta'minlash tizimi	Таджиева Диёра Рустамовна УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ДОХОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Экономика и финансы (Узбекистан). 2023. №3 (163). URL: <a href="https://cyberleninka.ru/article/n/uroven-zhizni-naseleniya-cherez-prizmu-dohodov-v-respublike-uzbekistan">https://cyberleninka.ru/article/n/uroven-zhizni-naseleniya-cherez-prizmu-dohodov-v-respublike-uzbekistan</a> (дата обращения: 17.04.2024).
7	Yakka tartibdagи ehtiyojlar tizimini qondirishning sifat va miqdor darajasi; ilmiy asoslangan standartlarga nisbatan iste'mol darajasini belgilaydi	Одегов Ю. Г., Руденко Г. Г., Лунева Н. К. (2007) Рынок труда (практическая макроэкономика труда). – 2007.
8	Farovonlik, tovarlar va xizmatlar iste'moli darajasining yuqori darajasi, aholi turmush darajasining yuqoriligi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning taraqqiy etishiga xizmat qiladi	Курпаяниди К. И., Мухсинова Ш. О. Анализ уровень жизни населения Республики Узбекистан //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2021. – №. 9-1. – С. 154-159.
9	Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos keluvchi turmush shart-sharoitlarining sifat va miqdor xususiyatlari	Султонов Ш. А., Шомуродова Ш. Ш. ХИЗМАТ КҮРСАТИШ СОҲАСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 248-252.
10	Shaxsiy hayot kechirish sifati (masalan, oziq-ovqat mahsulotlari yoki kiyim-kechak sotib olish, shaxsiy avtomashinaning mavjudligi va shu kabilar)	Sen A. The standard of living. – Cambridge University Press, 1988.
11	Muayyan bir shaxs yoki uy xo'jaligining farovonlik darajasi. Iqtisodiy tahlilda turmush darajasi iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlar miqdori (shu jumladan bo'sh vaqt) bilan belgilanadi.	Pearce D. W., Atkinson G. D., Dubourg W. R. The economics of sustainable development //Annual review of energy and the environment. – 1994. – Т. 19. – №. 1. – С. 457-474.
12	Ko'pgina asosiy ko'rsatkich tizimlari, boshqa tushunchalar bilan birlashib, farovonlik, qoniqish, ya'ni hayot sifatini tashkil qiluvchi unsurlarning insonparvarlik jihatdan talqin qilishni anglatadi.	Engerman S. L. The standard of living debate in international perspective: measures and indicators //Health and welfare during industrialization. – University of Chicago Press, 1997. – С. 17-46.
13	Turmush darajasi sifati inson hayoti turli qirralarining qay darajada to'kis ekanligini o'lchash bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Mazkur baholashlar moddiy, hissiy qoniqishni ko'zda tutadi	Diener E. et al. Subjective well-being: Three decades of progress //Psychological bulletin. – 1999. – Т. 125. – №. 2. – С. 276.
14	Turmush sifati ko'pincha farovonlik tushunchasi bilan bir o'rinda qo'llaniladi	Van Zanden J. L. Wages and the standard of living in Europe, 1500–1800 //European review of economic history. – 1999. – Т. 3. – №. 2. – С. 175-197.
15	Farovonlik odatda aholining amalda turmush kechirish shart-sharoitlari, hayot sifatini tavsiflaydi, turmush sifati borasida insonlarning sub'yektiv qarashlari bilan cheklanadi.	Исматов Ш. А. ҲАЁТ СИФАТИНИНГ АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИНИ АНИҚЛАШ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 35. – №. 2. – С. 130-139.
16	Turmush sifati kategoriyasi noaniq va yetarlichcha murakkab bo'lgan tushuncha bo'lib, uni aniqlash borasida izchillik talab etiladi. Bundan tashqari, ba'zi tadqiqotchilar "tur mush darajasi" tushunchasini aniqlashtirib bo'lmasligini ta'kidlashadi.	Schalock R.L. et al. Quality of life: Its measurement and use //Mental retardation. – 1989. – Т. 27. – №. 1. – С. 25.

Tadqiqotchilar tomonidan turmush darajasi tushunchasini aniqlashtirish borasida ilgari surilgan ta'rif va yondashuvlarning tahlili aholi turmush darajasini aniqlashtirishda moddiy farovonlik unsurlari emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ne'matlar muhim o'r'in tutishini ko'rsatadi. Bir qator xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida turmush darajasi uy xo'jaliklarining daromadlari va iste'mol darajasi bilan bir o'rinda qo'llaniladi (Schalock et al. 1989).

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir ta'rif to'g'ridan-to'g'ri turmush darajasi va ehtiyojlarni qondirish darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ta'riflarning mazmunini baholash asosida turmush darajasining muhim tashkil etuvchilarini aniqlashtirishimiz mumkin bo'ladi, mazkur tashkil etuvchilarni tahlil qilish aholi turmush darajasining maqbul ko'rsatkichini ta'minlash aholi ehtiyojlarini qondirilganlik holati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).



**1-rasm. Aholi turmush darajasining eng muhim tashkil etuvchilari**

Yuqorida bildirilgan qarashlar borasida deyarli barcha tadqiqotchilar yakdil ekanliklarini ko'rish mumkin. Aholi turmush darajasi tushunchasiga berilgan ta'riflarni umumlashtirish asosida aholi turmush darajasi tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish o'rinli hisoblanadi: aholi daromadlari va iste'mol darajasi bilan belgilanuvchi jamiyatda qaror topgan farovonlik ko'rsatkichi bo'lgani holda, aholi turmush darajasi jamiyat a'zolarining hayotdan moddiy va hissiy qoniqishlarini aks ettiradi.


Aholi turmush darajasi va ehtiyojlarni qondirish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi tabiiydir va bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Ushbu holatda aholi turmush darajasi va iste'mol darajasi o'rtasidagi muhim shart-sharoit va omillarni aniqlashtirish talab etiladi (2-rasm).

Umuman olganda, turmush darajasini shakllantirishda ustuvorlik kasb etuvchi omilni aniqlashtirishga asoslangan aholi turmush darajasini tadqiq qilishning quyidagi asosiy yo'naliшlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi;
- aholi farovonligi;
- turmush sifati;
- iste'mol darajasi va tuzilmasi;
- iste'mol me'yordi va standartlari.

Aholi turmush darajasini tahlil qilishda iste'mol me'yordi va standartlari muhim o'r'in tutadi. Qonunchilikda ko'zda utilgan tushunchalarga tayangan holda, aholi turmush darajasini tafsiflovchi quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:



## 2-rasm. Aholi turmush darajasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

- **yetarlilik** - insonning har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi barcha ne'matlar majmuidan to'lqonli foydalana olish imkoniyati;
- **me'yor** - insonning jismoniy va aqliy salohiyatini qayta tiklash imkonini beruvchi va ilmiy asoslangan me'yorlar asosida iste'mol;
- **kambag'allik** - ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning eng quyi chegarasida ne'matlarni iste'mol qilish darjasи;
- **qashshoqlik** - insonning shunchaki mavjud bo'lishiga imkon yaratuvchi darajada ne'matlarni iste'mol qilish.

Yuqorida keltirilgan tasnidan kelib chiqqan holda, iste'mol budgetlarini uch turga ajratish taklif etiladi: yashash minimumi, tiklovchi iste'mol budgeti va yuqori iste'mol layoqatini ta'min etuvchi yetarlicha yuqori daromadli budget.

Iste'mol me'yorlari va standartlaridan foydalanishga asoslangan yondashuv aholi turmush darjasи bilan bog'liq amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, shu jumladan turmush darjasи va iste'mol omili o'rtafiga bog'liqlikni baholashda keng qo'llaniladi (Ismatov, 2024).

Ko'rinish turibdiki, tadqiqot borasida muayyan bir yondashuvni tanlash turmush darjasini miqdoriy jihatdan aniqlashtiruvchi ko'rsatkichlar tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu borada mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, "aholi turmush darjasи" kategoriyasining mazmunini talqin qilishda tadqiqotchilarning qarashlari bir-biridan bir muncha farq qiladi.

Bu boradagi fikrlarimizni tasdiqlash maqsadida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan aholi turmush darjasini baholash borasida taklif etilgan ayrim ko'rsatkichlar mazmunini tahlil qilamiz (2-jadval).

Xorijiy tadqiqotchilarning turmush darjasи borasida qo'llaydigan ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish ular ko'pincha ko'rsatkichlarning miqdoriy jihatlariga emas, aksincha sifat bilan bog'liq qirralariga katta e'tibor qaratishlarini ko'rsatadi, bunda erkinlik, baxtlilik, ekologik omillar, sog'lijni saqlash va innovatsiya kabi sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2-jadval

**Xorijiy adabiyotlarda aholi turmush darajasini baholash borasida  
keltirib o'tilgan ko'rsatkichlar**

Nº	Baholash ko'rsatkichlari	Manba
1.	Iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'pincha makro darajadagi indekslarni ifoda etsada, shunga qaramay ular keng ko'lamlı rejalashtirish va ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilishda qo'l keladi. Iqtisodiy farovonlik iqtisodiy resurslardan foydalanish va iqtisodiy faoliyat natijasi o'laroq, insonning ne'matlarni qay darajada iste'mol qila olish imkoniyatlarini aks ettirsada, insonning turmush kechirish shart-sharoitlarini baholash uchun yetarli emas.	Bognar G. The concept of quality of life //Social theory and practice. – 2005. – T. 31. – №. 4. – C. 561-580.
2.	Turmush darajasi ko'rsatkichlari og'ishlarni aniqlash va zarur hollarda ijtimoiy chora-tadbirlar yo'nalishini o'zgartirish maqsadida ijtimoiy tizimni kuzatishda muhim o'rinn tutadi.	Diener E., Suh E. Measuring quality of life: Economic, social, and subjective indicators //Social indicators research. – 1997. – T. 40. – C. 189-216.
3.	Turmush darajasi ko'rsatkichlarining uchta turi farqlanadi: farovon-likning me'yoriy ko'rsatkichlari, hayotdan qoniqish va/yoki baxt ko'rsatkichlari va tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Turmush darajasi ko'rsatkichlarining birinchi turi to'g'ridan-to'g'ri siyosatni aniqlashning ijtimoiy jihatlariga tegishli bo'lgani holda, ular mezon ko'rsatkichlari, farovonlikning me'yoriy ko'rsatkichlari va strategik ko'rsatkichlar ham deb yuritiladi. Hayotdan qoniqish va sub'yektiv farovonlik yoki oddiy qilib aytganda baxtlilik ko'rsatkichi deb yuritiluvchi turmush darajasi ko'rsatkichlarining ikkinchi turi ruhiy qoniqish va baxtlilik darajasini o'lchashga xizmat qiladi. Ijtimoiy ko'rsatkichlarning uchinchi turi jamiyat borasidagi qarashlarimizni oydinlashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy o'lchov va tadqiqotlar olib borishni ko'zda tutadi.	Sharpe A. et al. A survey of indicators of economic and social well-being. – Ottawa : Centre for the Study of Living Standards, 1999.
4.	Turmush darajasi ko'rsatkichlariga qulayliklar, sanitariya, hordiq chiqarish imkoniyatlari, ijtimoiy hamkorlik, ta'lim, madaniy qadriyatlar, ish muhiti, moliya, kasb-hunar ta'limi, bo'sh vaqt, xavfsizlik va so'z erkinligi kiradi.	Kekic L. et al. The Economist Intelligence Unit's index of democracy //The Economist. – 2007. – T. 21. – C. 1-11.
5.	Turmush darajasi ko'rsatkichlari tizimlari haqiqiy vaziyatni to'laqonli aks ettira olmaydi. Turmush darajasi jamiyatda tarkib topgan standartlar va me'yorlar bilan o'lchanadi.	Swain D., Hollar D. Measuring progress: Community indicators and the quality of life //International Journal of Public Administration. – 2003. – T. 26. – №. 7. – C. 789-814.

### Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan o'rganishlar turmush darajasi kabi murakkab va ko'p o'lchovli kategoriyanı tafsiflashda muayyan bir ko'rsatkichlar majmui bilan cheklanib bo'lmasligini ko'rsatadi. Aholi turmush darajasini shakllantirish borasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarning tafsifi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turmush darajasini tafsiflovchi ko'rsatkichlar farqlanadi.

O'rganish natijalari turmush darajasini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan mutaxassis va olimlar turmush sifatiga aholining iste'mol ne'matlari bilan ta'minlanganlik holati, aholining iqtisodiy ahvoli va moddiy imkoniyatlari, iste'mol tafsifi va iste'mol qilinayotgan ne'matlar miqdori kabilar ta'sir qilishi borasida yaxlit qarashlarni ilgari suradilar.

Shu bilan bir qatorda, maqbul turmush darajasini qaror toptirishda ustuvorlik kasb etuvchi omillarni ajratib ko'rsatishda yaxlitlik mavjud emasligini ta'kidlashimiz lozim. Tadqiqot davomida aholi turmush darajasini shakllantirish borasida quyidagi muhim omillarga asoslangan

yondashuvlar mavjudligi aniqlashtirildi: ijtimoiy takror ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi; milliy farovonlik; turmush darajasi; hayot sifati; daromadlarni tabaqalashtirish; iste'mol darajasi va tuzilmasi; iste'mol me'yorlari va standartlari.

Tahlillarimiz aholi turmush sifatining maqbul darajasini ta'minlash ko'p jihatdan aholi tomonidan ne'matlarni iste'mol qilish imkoniyatlari va ko'lamiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish asnosida mazkur ko'rsatkichlar tizimini quyidagi ko'rsatkichlar bilan boyitish taklif qilinadi:

- turmush darajasi va hayot sifati o'lchamlarini baholash, bunday ko'rsatkichlar sirasiga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash borasida davlat xarajatlari, ekologiya bilan bog'liq ko'rsatkichlar, kutilayotgan umr davomiyligi, aholi demografiyasi, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifati kabilar kiradi;

- muayyan turmush darajasi va hayot sifatini shakllantirish jarayonlarini baholash. Bunda salbiy ijtimoiy-iqtisodiy holatlarning ko'payishi, ta'lim, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, jinoyatchilik ko'lami kabilar muhim o'rinn tutadi;

- aholi turmush sifatini shakllantirish omillarini baholash. Bunday ko'rsatkichlar sirasiga mehnat salohiyati, iqtisodiy faollik, bo'sh vaqt, pensiya ta'minoti, kambag'allik darajasi kabilar kiradi.

### ***Adabiyotlar/Litteratura/Reference:***

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) *Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar* //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 4. – C. 12-21.

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) *INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH* //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 2. – C. 5-14.

Bognar G. (2005) *The concept of quality of life* //Social theory and practice. – T. 31. – №. 4. – C. 561-580.

Diener E. et al. (1999) *Subjective well-being: Three decades of progress* //Psychological bulletin. – – T. 125. – №. 2. – C. 276.

Diener E., Suh E. (1997) *Measuring quality of life: Economic, social, and subjective indicators* //Social indicators research. – T. 40. – C. 189-216.

Engerman S.L. (1997) *The standard of living debate in international perspective: measures and indicators* //Health and welfare during industrialization. – University of Chicago Press, – C. 17-46.

Kekic L. et al. (2007) *The Economist Intelligence Unit's index of democracy* //The Economist. – T. 21. – C. 1-11.

Pearce D.W., Atkinson G.D., Dubourg W.R. (1994) *The economics of sustainable development* //Annual review of energy and the environment. – T. 19. – №. 1. – C. 457-474.

Schalock R. L. et al. (1989) *Quality of life: Its measurement and use* //Mental retardation. – T. 27. – №. 1. – C. 25.

Sen A. (1988) *The standard of living*. – Cambridge University Press.

Sharpe A. et al. (1999) *A survey of indicators of economic and social well-being*. – Ottawa : Centre for the Study of Living Standards.

Swain D., Hollar D. (2003) *Measuring progress: Community indicators and the quality of life* //International Journal of Public Administration. – T. 26. – №. 7. – C. 789-814.

Van Zanden J. L. (1999) *Wages and the standard of living in Europe, 1500–1800* //European review of economic history. – T. 3. – №. 2. – C. 175-197.

Абдуллаева, М., & Адилов, Б. (2020). Ахоли турмуш даражаси ва унга таъсир этувчи омиллар. Архив научных исследований, 1(13). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1514>

Исматов Ш. А. (2024) *ҲАЁТ СИФАТИНИНГ АХОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИНИ АНИКЛАШ* //TADQIQOTLAR. UZ. – T. 35. – №. 2. – C. 130-139.

Курпаяниди К. И., Мухсинова Ш. О. (2021) *Анализ уровенъ жизни населения Республики Узбекистан* //Экономика и бизнес: теория и практика. – – №. 9-1. – C. 154-159.

Лебедев О.В. (2007) Формирование и оценка эффективности инвестиций в социальную сферу: дис. – Белгородский государственный технологический университет им. ВГ Шухова.

Одегов Ю.Г., Руденко Г.Г., Лунева Н.К. (2007) Рынок труда (практическая макроэкономика труда). –

Рустамов Н.И. (2015) Аҳоли турмуш даражаси ва Ўзбекистонда уни ошириш имкониятлари. //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали.– Т. 5. – С. 1-9.

Султонов Ш. А., Шомуродова Ш. Ш. (2023) ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – Т. 1. – №. 12. – С. 248-252

Таджиеева Диёра Рустамовна (2023) УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ДОХОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // Экономика и финансы (Узбекистан).. №3 (163). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/uroven-zhizni-naseleniya-cherez-prizmu-dohodov-v-respublike-uzbekistan> (дата обращения: 17.04.2024).

Халиуллина Р. Ф., Рябчук П. Г. (2016) К задаче идентификации понятий «уровень жизни» и «качество жизни» //Новая наука: Современное состояние и пути развития. – №. 12-2. – С. 180-183.

Шимов В.Н., Богданович А.В., Ткачев С.П. (2002) Устойчивое развитие: проблемы, императивы, механизмы достижения.